



## JIZZAX VILOYAT STATISTIKA BOSHQARMASI



## JIZZAX VILOYAT SANOAT ISHLAB CHIQRISHI

2023- YIL YANVAR - MART  
(DASTLABKI MA'LUMOT)




## Jizzax viloyatining sanoat ishlab chiqarishi


(2023- yil yanvar-mart oylarida)

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2023- yilning yanvar-mart oylarida viloyat korxonalari tomonidan 3796,8 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2022- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi\* 104,0 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 97,4 % ni tashkil etdi.




### Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarishi, FHI\* % da



\*Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.


Jami sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmi o'rishining asosiy omili bo'lib, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatning 9,3 % ga, o'ishi kuzatildi.

**Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati**



Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2023- yilning yanvar-mart oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 24,2 mlrd. so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining ulushi 0,6 % ini tashkil etdi.

**Jami sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi, foizda**



Yanvar-mart

## 2023-yil yanvar-mart

Tumanlar miqiyosida, tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi, mln. so‘mda

Tumanlar nomi	2022- yil yanvar-mart	2023- yil yanvar-mart	Farqi +/-
G‘allaorol tumani	3 678,7	3 157,9	-520,8
Sharof Rashidov tumani	1 283,1	733,7	- 549,4
Zomin tumani	2 374,3	532,2	1 842,1
Jizzax shahri	16 133,4	17 190,9	1 057,5
Zafarobod tumani	3 131,9	1 488,9	- 1 643,0

Jami sanoat ishlab chiqarishi tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash Shahar va tumanlar kesimida jami hajmidagi eng yuqori ulushi Jizzax shahriga 71,1 % Zafarobod tumaniga to‘g‘ri kelib 6,2 % ni va G‘allaorol tumani 13,2 % ni tashkil etdi.

45,8 %

2022- yil

14,8 %

2023- yil


O‘tgan yilning mos davriga nisbatan, % da

Ishlab chiqaradigan sanoat

mlrd. so'm

Yanvar-mart

FHI,% da



2023- yilning yanvar-mart oylarda ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 3697,4 mlrd.so'mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 97,4 % ini tashkil etdi.


2022-yil yanvar-mart

94,1 %

2023-yil yanvar-mart

97,4 %

O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,1 % o'rta-yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 49,2 % (30,0 %) ni, o'rta-quyi texnologiyali 12,3 % (16,5 %) va quyi texnologiyali - 35,8 % (47,5 %)ni tashkil etdi.




Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida mashina va asbob- uskunalar ishlab chiqarish, ta'mirlash va o'rnatish, avtotransport vositalari, yarim tirkamalar va boshqa tayyor buyumlarni ishlab chiqarish sohasining ulushi – 47,0 % ( 2022- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 178,7 %), metallurgiya sanoatining ulushi – 0,8 % ( 2022- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 125,3 %), to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 25,4 % ( 2022- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 93,2 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 7,1 % ( 2022- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 85,3 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi – 5,8 % ( 2022- yilning yanvar –mart oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 126,6 %)ni tashkil etdi.

**Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdagi mahsulotlarning o'sish sur'ati**  
O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da


**Paxta tolasi**




**Paxta chigiti**




**Paxta linti**




**O'simlik yog'i (tozalangan)**



**Trikotaj polotnolar**



**Yumshoq bug'doy va spelta uni**



**Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish**

Sanoat mahsulotlari	2022- yil yanvar-mart	2023- yil yanvar-mart	Farqi +/-
Paxta tolasi, t.	10 430,0	10 893,6	463,6
Yumshoq bug‘doy va spelta uni, t.	16 743,9	6 146,7	-10 597,2
Paxta chigiti, t.	16 479,0	14 643,5	- 1 835,5
O‘simlik yog‘i (tozalangan), t.	1 548,0	1 489,9	-58,1
Paxta linti, t.	709,0	898,5	189,5
Trikotaj polotnolar, t.	440,0	498,0	58,0

2023- yilning yanvar-mart oylar davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 6,1 ming tonna yumshoq bug‘doy va spelta uni ( 63,3 % kamaygan), 10,9 ming tonna paxta tolasi ( 31,3 % ga kamaygan), holda ishlab chiqarilib, 14,6 ming tonna paxta chigiti 27,6 % ga ) kamaygani kuzatildi.

**Yumshoq bug‘doy va spelta uni**

36,7 %


**Paxta tolasi, t.**

68,7 %


*O‘tgan yilning mos davriga nisbatan, % da*

### Metallurgiya sanoati

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2022- yilning yanvar-mart oylarida metallurgiya sanoati ulushi 1,3 % ni tashkil etib, uning fizik hajm indeksi 104,4 % ga tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilning yanvar-mart oylar yakunlariga ko'ra, metallurgiya sanoatining ulushi 0,8 % gacha kuzatildi, fizik hajm indeksi esa, 125,3 % o'sish sur'atlari kuzatildi va ishlab chiqarish hajmi 29,5 mlrd. so'mni tashkil etdi.




### Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish



Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2022- yilning yanvar-mart oylarida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi 11,8 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 106,1 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2023- yilning yanvar-mart oylar yakunlariga ko'ra, boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 8,0 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 79,6 % ga o'sish sur'atlari kuzatildi va ishlab chiqarish hajmi 302,1 mlrd. so'mni tashkil etdi.

### Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati


Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2022- yilning yanvar-mart oylarida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 10,7 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 105,1 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2023- yilning yanvar-mart oylar yakunlariga ko'ra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 7,0 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 85,2 % ga oshdi va ishlab chiqarish hajmi 265,6 mlrd. so'mni tashkil etdi.






### Ichimliklar ishlab chiqarish sanoati

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2022- yilning yanvar-mart oylarida ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 0,1 % ni tashkil etgan bo'lsa, uning fizik hajm indeksi 82,8 % ni tashkil etgan. 2023- yilning yanvar-mart oylari yakunlariga ko'ra, ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 0,1 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 94,3 % ni va ishlab chiqarish hajmi 3,7 mlrd. so'mni tashkil etdi.




### To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati



Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2022- yilning yanvar-mart oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 29,4 % ni tashkil etgan bo'lsa, uning fizik hajm indeksi 119,5 % ni tashkil etgan. Shuningdek, 2023- yilning yanvar-mart oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 21,6 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi 88,5 % tashkil etgan bo'lsa, ishlab chiqarish hajmi 819,1 mlrd. so'mni tashkil etdi.

### Kiyim ishlab chiqarish sanoati

2022-yilning yanvar-mart oylari yakunlariga ko'ra, kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 3,7 % ni, fizik hajm indeksi esa 102,5 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2023- yilning yanvar-mart oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 3,8 %, fizik hajm indeksi 126,7 % ni, ishlab chiqarish hajmi esa 145,1 mlrd. so'mni tashkil etdi.




### Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish

2022-yilning yanvar-mart oylari yakunlariga ko'ra kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,1 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 1089,3 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2023- yilning yanvar-mart oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 3,0 % ni, fizik hajm indeksi 130,4 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 114,3 mlrd. so'mni tashkil etdi.



### Elektr jihozlari ishlab chiqarish




2022- yilning yanvar-mart oylari yakunlariga ko'ra, Elektr jihozlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 3,6 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 114,1 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2023- yilning yanvar-mart oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 4,0 % ni, fizik hajm indeksi 131,1 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 153,5 mlrd. so'mni tashkil etdi.

### Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish


2022- yilning yanvar-mart oylari yakunlariga ko'ra, rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 2,6 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 53,3 % ga oshgan.

Shuningdek, 2023- yilning yanvar-mart oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 2,8 % ni, fizik hajm indeksi 121,1 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 106,6 mlrd. so'mni tashkil etdi.



## Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 59,8 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining ulushi 1,6 % ini) tashkil etdi. 2023- yilning yanvar-mart oylarida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 42,7 % ga pasayishi kuzatildi.




Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2022- yil yanvar-mart	2023- yil yanvar-mart	Farqi +/-
Elektr energiyasini uzatish bo'yicha xizmatlar, mln. so'm	63 816,2	31 628,6	-32 187,6
Boshqa bug' va issiq suv (issiqlik energiyasi), ming gkal	3,3	3,9	0,6
Gazsimon yonilg'ini quvurlar orqali taqsimlash bo'yicha xizmatlar, mln. so'm	26 476,5	28 175,7	1 699,2

### Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 15,4 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,4 % ini) tashkil etdi.



### Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2022- yil yanvar-mart	2023- yil yanvar-mart	Farqi +/-
Suvni yig'ish, qayta ishlash va taqsimlash bo'yicha xizmatlar, mln. so'm,	17 351,9	11 242,2	-6 109,7
Chiqindilarni yig'ish, ishlov berish, yo'qotish, utilitatsiya qilish bo'yicha xizmatlar, mln. so'm	5 865,5	4 196,3	-1 669,2

O'tgan yilning mos davriga nisbatan suvni yig'ish, qayta ishlash va taqsimlash bo'yicha xizmatlar 43,8 % ga pasayishi kuzatildi, shuningdek chiqindilarni yig'ish, ishlov berish, yo'qotish, utilitatsiya qilish bo'yicha xizmatlar 49,2 % ga pasayishi kuzatildi.

## Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 2242,5 mlrd.so'mni tashkil etdi va 2022 yilning mos davriga nisbatan 162,7 % ni, uning jami sanoatdagi ulushi 59,1 % ni tashkil etdi.

## Oziq-ovqat mahsulotlari

2022-yil  
yanvar-mart

20,5%

2023-yil  
yanvar-mart

11,8%

## Nooziq-ovqat mahsulotlar

2022-yil  
yanvar-mart

79,5%

2023-yil  
yanvar-mart




88,2%

Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish vino va aroq mahsulotlari va pivo 11,8 % (2022- yil yanvar-mart oylarida 20,5 %) ni tashkil etdi. Shahar va tumanlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Jizzax shahriga to'g'ri kelib 37,0 % ni va Zarbdor tumani 12,3 % ni, Zomin tumani 11,6 % ni hamda Paxtakor tumani 7,4 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, oziq-ovqat iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida eng yuqori ko'rsatkich Baxmal tumanida (175,6 %), G'allaorol tumanida (159,3 %) hamda Zarbdor tumanida (158,8 %), qayd etildi.

**Shahar va tumanlar bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati**

Shahar va tumanlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Jizzax shahriga to'g'ri kelib, 12,1 % shuningdek, G'allaorol tumani 67,7 %, ni, hamda Forish tumani 3,8 % ni tashkil etdi.



o'sish sur'ati  
mlrd. so'm

## Shahar va tumanlar bo'yicha nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

Shahar va tumanlar kesimida nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Jizzax shahriga to'g'ri kelib, 9,7 % shuningdek, G'allaorol tumani 78,8 %, ni tashkil etdi.

**411,8** mlrd. so'm


2021-yil yanvar-mart

**902,8** mlrd. so'm



2022-yil yanvar-mart

**1977,2** mlrd. so'm

2023-yil yanvar-mart



Jami iste'mol mollari ishlab chiqarish hajmida nooziq-ovqat mahsulotlarining ulushi






o'sish sur'ati

mlrd. so'm

## Shahar va tumanlar bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

Shahar va tumanlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Jizzax shahriga to'g'ri kelib, 37,0 % ni, shuningdek, Zarbdor tumani 12,3 % ni, Zomin tumani esa 11,6 % ni tashkil etdi.





### Jizzax viloyatining shahar va tumanlar kesimida sanoat ishlab chiqarishi hajmlari

Shahar va tumanlar kesimida sanoat ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Jizzax shahriga to'g'ri kelib, 23,3 % ni, shuningdek, G'allaorol tumani 43,5 % ni, Zafarobod tumani esa 6,5 % ni tashkil etdi.

#### Jizzax viloyati

2021- yil

1480,4 mlrd. so'm

2022- yil

2294,2 mlrd. so'm

2023- yil

3796,8 mlrd. so'm



2021- yil

116,1 %

2022- yil

104,7 %

2023- yil

104,0 %

Jizzax viloyati

104,0

3796,8

Jizzax shahar

98,7

884,2

Arnasoy

61,6

47,2

Baxmal

105,6

29,5

G'allaorol

113,2

1651,6

Sharof Rashidov

97,1

110,9

Do'stlik

97,5

233,5

Zomin

104,6

148,8

Zarbdor

106,3

121,9

Zafarobod

97,0

246,4

Mirzacho'l

98,6

48,7

Paxtakor

102,7

155,6

Forish

101,4

93,0

Yangiobod

103,0


25,5

FHI, % da

mlrd. so'm



## Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Jizzax shahri (4595,6 ming so'm), Zafarobod (4670,1 ming so'm) tumanida hamda G'allaorol (9010,2 ming so'm) o'rtacha viloyat darajasi ko'rsatkichidan (2566,6 ming so'm) ancha yuqoriligini ko'rsatmoqda.



Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi




Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 2 414,3 mlrd. soʻmlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 63,6 % ni tashkil etdi.



## Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish


Viloyat bo'yicha aholi jon boshiga iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishi 1 515,9 ming so'm bo'lgani holda, Jizzax shahrida – 1 510,4 ming so'mni, Paxtakor tumanida – 671,6 ming so'mni, G'allaorol tumanida – 8 563,5 ming so'mni tashkil etdi.

### Jizzax viloyati



## Jizzax viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari


Bugungi kunda viloyatda 2965 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 833 tasi ( faoliyat yuritayotgan korxonalar umumiy sonining 28,1 % i ) Jizzax shahriga, 418 tasi (14,1 %) Sharof Rashidov tumaniga, 324 tasi ( 10,9 %) G'allaorol tumaniga, 264 tasi ( 8,9 %) Zomin tumaniga va 197 tasi (6,6 %) Zarbdor tumaniga to'g'ri kelmoqda.



### Jami yangi tashkil etilgan



### Jami faoliyat yuritayotgan



## Tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish dasturining amalga oshirilishi

Viloyatda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning yuqori o'sish sur'atlariga erishishda tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish Dasturining amalga oshirilishi ham o'z ta'sirini ko'rsatdi. Mazkur dastur doirasida kiritilgan 90 ta loyiha bo'yicha 1982,0 mlrd. so'mlik mahsulotlar ishlab chiqarildi. Mahalliyashtirish dasturi doirasida ishlab chiqarilgan mahsulotlardan 4,4 mln. AQSH dollari miqdorida eksport qilindi.



Mahalliyashtirish dasturi doirasida 2023- yilning yanvar-mart oylarida 379 ta yangi ish o'rinlari yaratildi, o'tgan yilning mos davri bilan taqqoslaganda mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi 176,5 % ga oshgan. Shu bilan birga, 2022- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan mahalliyashtirilgan mahsulotlar eksporti hajmining 50,0 % ga pasayishi kuzatildi.